

## HAMZANING HAQIQIY IJODIY QIYOFASI

Tursunova Moxigul Xikmatillo qizi

Farg‘ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayot va ijod yo‘li, shaxsiyatiga doir qarashlarning turli davrlarda turlicha talqin etilganligi haqida fikr yuritiladi. Hamza shaxsiga nisbatan dahriy, inqilobchi kabi sifatlar noo‘rin qo‘llanganligi, aslida ma‘rifatparvarlik ruhidagi asarlari aniq yoritilmaganliklari aytib o‘tiladi. Maqolada Hamza ijodining bugungi kun uchun ahamiyati va tarbiyaviy qiymati ham asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Hamza, Shohimardon voqealari, jadid dramaturgiyasi, munaqqid, ijod yo‘li, shaxsiyat, dramalar, inqilob kuychisi, dahriy tushunchasi.

### Annotation

This article discusses the life and creative path of Hamza Hakimzoda Niyoziy, one of the prominent representatives of Uzbek literature, as well as the varying interpretations of his personality across different historical periods. It highlights that labels such as “atheist” and “revolutionary” have been inappropriately applied to Hamza, while the true essence of his works, rooted in enlightenment ideals, has not been adequately illuminated. The article also substantiates the contemporary significance and educational value of Hamza’s works.

**Keywords:** Hamza, the Shohimardon events, Jadid dramaturgy, critic, creative path, personality, dramas, singer of revolution, concept of atheism.

### Kirish

O‘zbek adabiyoti tarixida Hamza Hakimzoda Niyoziy alohida o‘rin egallagan ijodkorlardan biridir. U nafaqat shoir va dramaturg, balki jadidchilik harakatining faol vakili, ma‘rifatparvar ziyoli sifatida ham tanilgan. Hamzaning haqiqiy ijodiy qiyofasi

uning asarlarida aks etgan ijtimoiy muammolar, xalqni uyg‘otishga qaratilgan g‘oyalari hamda yangilikka intilgan ruhida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hamza ijodi, avvalo, xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishga xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. U o‘z asarlarida eski urf-odatlar, xurofot va adolatsizliklarni keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, uning dramaturgik asarlarida jamiyatdagi illatlar ochib berilib, tomoshabin va o‘quvchini fikrlashga undaydi. Bu jihat Hamzaning ijodiy qiyofasini ma‘rifatparvar va islohotchi sifatida namoyon etadi.

Lekin shunga qaramay ma‘rifatparvar adib shaxsi va ijodiga munosabat o‘tgan asrning 90-yillariga kelib tubdan o‘zgargani bizga sir emas. Zamonning zayli ila ayrim munaqqidlar uni darsliklardan chiqarib tashlash taklifi bilan ham chiqdilar. Bunga sabab esa adibning ”Yasha , Sho‘ro!” , ”Hoy, hoy otamiz!” kabi she‘rlari , ”Boy ila xizmatchi” dramasida inqilobchi G‘ofir obrazini yaratgani edi.

1939-yili Hamza Hakimzoda Niyoziyning 50 yillik tavalludi keng ommada ko‘tarinki ruhda nishonlanadigan bo‘ldi. Shu davrning zamonaviy yorlig‘i bo‘lgan ”Inqilob kuychisi” degan unvon yopishtirildi. Lekin shoirning inqilobiy she‘rlari sanoqli edi. Uning ma‘rifat, erk, o‘zlikni anglash ruhidagi she‘rlari kommunistik mafkuraga moslanib qayta ishlandi. Natijada esa 40yil mobaynida ”Hamza - inqilob kuychisi” bo‘lib e‘tirof etildi. Ijodkor she‘rlarining asli qanday bo‘lgan degan savol bizni o‘ylantirishi mumkin. Hamzaning ”Yasha, Sho‘ro!” she‘ri aslida ”Yasha, Turon!” tarzida bo‘lganligini akademiklar I.Sultonov va S.Mamajonovlar aniq dalillar asosida isbotlab berdilar (”Ikki muhim tuzatish”, ”O‘zAS”,1997 -yil 28-fevral). ”Boy ila xizmatchi” daramasini bo‘lsa Hamzaning yaqin shogirdi dramaturg Komil Yashin tomonidan qayta tiklangan nusxasi ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘ldi. Tiklangan nusxadagi Jamilaning o‘limoldi hayqirig‘ida - ”...Bolangni o‘ldirgan, xotiningni xazon qilgan boyning, butun boylarning jazosini ber. Zamonasiga o‘t qo‘y , yondir.” - 17 yoki 18-yilning emas, 39-yilning dag‘dag‘asi ko‘proq. Chunki bu so‘zlarni Hamza emas , Komil Yashin yozgan. Yozuvchilar uyushmasi minbaridan turib ”Bitsin bizning oramizdan haydalgan va bizning adabiyotimizni buzishga uringan xalq dushmanlari - trotskiychi, buxarinchi, millatchi,

aksil-inqilobchi Z.Said, Elbek, Cho‘lpon, Firatlar” - deb xitob qilgan Komil Yashin. Komil Yashin o‘z manfaatlariga ishlagan holda dramani qayta tikladi. Shu tariqa vafot etgan Hamza orqasidan turli xil maqtovu bo‘htonlar yurdi.

Endi esa shoirga nisbatan dahriy tushunchasini nega ishlatilganligi haqida fikr yuritsak. Naim Karimovning ”Hamzani kim o‘ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori” nomli maqolasida Hamza Shohimardondagi xo‘jalarga qarshi chiqqanini, Shohimardonda 8-mart bayramini 8 nafar ayolning paranjidan xalos etilishi bilan nishonlaganini, u yerdagi masjidni buzishga uringanlik holatini dahriylikka monand deya atadilar. Aslida qanday edi? Xo‘jalarga qarshi chiqqani bu kambag‘al xalqni o‘ylaganligidandir. Tayyor mozorni pulini yeb yotishi va oddiy xalqqa bermaslik holatlari Hamzaga yoqmadir. Lekin paranji masalasida bir narsa deyish qiyin. Masjid o‘rniga esa klub ochish fikrini bergan edi. Hamzaning bunday qilishida ham bir sabab bor edi. U millatni madaniyatli, zamonaviy fikrlashga, ilmi qilishga uringan.

Umuman olganda, Hamzaning haqiqiy ijodiy qiyofasi — xalqparvarlik, adolatparastlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ijodkor siyomosidir. Uning asarlari orqali o‘z davrining og‘riqli muammolari ko‘tarilib, jamiyatni yangilashga xizmat qiluvchi fikrlar ilgari surilgan. Shu jihatdan qaraganda, Hamza nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunning ham dolzarb ijodkorlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Hamzaning haqiqiy ijodiy qiyofasi uning asarlari mazmun-mohiyati, ilgari surilgan g‘oyalar va ijtimoiy pozitsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Boy ila xizmatchi” dramasi orqali jamiyatdagi sinfiy tafovut va ijtimoiy adolatsizlik keskin tanqid ostiga olingan bo‘lsa, “Yasha, Sho‘ro!”(Yasha, Turon) hamda “Hoy, hoy otamiz” kabi she’rlarida davrning muhim siyosiy-ijtimoiy jarayonlariga nisbatan faol munosabat ifodalangan. Bu asarlar Hamzaning o‘z davrida kechayotgan tub o‘zgarishlarga befarq bo‘lmaganini, aksincha, ularni qo‘llab-quvvatlagan holda xalq ongini uyg‘otishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Hamzaga nisbatan qo‘llanilgan “dahriy” tushunchasi uning ijodini to‘liq va xolis baholashga to‘sqinlik qilgan omillardan biridir. Ilmiy manbalar va asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Hamza diniy qadriyatlarga qarshi emas, balki mutaassiblik, jaholat va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashgan ma’rifatparvar ijodkordir. Uning faoliyati jadidchilik harakati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, asosiy maqsad jamiyatni ilm-ma’rifat asosida taraqqiy ettirishdan iborat edi.

Demak, Hamzaning ijodiy merosi tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligida baholanishi zarur. U yaratgan asarlar nafaqat o‘z davrining muammolarini aks ettiradi, balki bugungi kunda ham ijtimoiy adolat, ma’rifat va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, Hamzaning haqiqiy ijodiy qiyofasi — bu murakkab, serqirra va chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan ma’rifatparvar ijodkor timsolidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo‘ldosh Solijonov. Zulmatdan nur qidirganlar.
2. Naim Karimov. ”Boy ila xizmatchi” dramasi ijodiy taqdiri. Hamza Hakimzoda ijodi problemalar(Tadqiqotlar), Toshkent, 1998,58-bet.
3. Komil Yashin. Davr ovozi.”Sovet O‘zbekistoni”,1989-yil5-mart.
4. Komil Yashin.Asarlar, 5-jild,42-bet.
5. ”Yoshlik” jurnali, 1991-yil, 10-son.